



**ЮНЕСКОНИНГ “НОМОДДИЙ МАДАНИЙ
МЕРОСНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ТЎҒРИСИДА”ГИ
КОНВЕНЦИЯНИНГ 20 ЙИЛЛИГИ,
“БУТУНЖАҲОН МАДАНИЙ ВА ТАБИЙ
МЕРОСНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ
КОНВЕНЦИЯСИНИНГ 50 ЙИЛЛИГИ ВА БУХОРО
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ 93 ЙИЛЛИГИГА
БАҒИШЛАНГАН “МОДДИЙ ВА НОМОДДИЙ
МАДАНИЙ МЕРОС УЙҒУНЛИГИ” МАВЗУСИДА
ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ**

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ
2023 йил 9 сентябрь





**“УМРБОҚИЙ МЕРОС” ЎЗБЕКИСТОН МАДАНИЯТИ ВА САНЪАТИ ТАРҒИБОТ
МАРКАЗИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР
ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚАРО ТАДҚИҚОТЛАР ИНСТИТУТИ

**ЮНЕСКОНИНГ “НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОСНИ
МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ТЎҒРИСИДА”ГИ
КОНВЕНЦИЯНИНГ 20 ЙИЛЛИГИ, “БУТУНЖАҲОН
МАДАНИЙ ВА ТАБИЙ МЕРОСНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШ КОНВЕНЦИЯСИНИНГ 50 ЙИЛЛИГИ ВА
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ 93
ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНГАН “МОДДИЙ ВА
НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС УЙҒУНЛИГИ”
МАВЗУСИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
АНЖУМАНИ
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ**

**«Дурдона» нашриёти
Бухоро – 2023**

something in the fibre of White Fang's being that made his lordship a thing to be desired, else he would not have come back from the Wild when he did to tender his allegiance.

Келтирилган парча Оқ Сўйлоқ номли ярми бўри ва ярми ит зотидан бўлган жонзот бўлиб, унинг бошқа бўрилардан анча фарқ қилиши, ақлий салоҳиятининг юқорилиги унинг кўп саёхат қилганидан, бебаҳо дунёсида ир меҳрибонлик, улғайгани сари донолик хислатларининг ривожланганлиги тасвирланган. Оқ Сўйлоқ эгаси пайдо бўлгач, уни тан олади, хурсанд эди, унда олий ақл билан бирга кўпол кучга асосланган ҳукмронлик туйғуси ҳам устунлик қиларди. Инсоният оламига ташрифи бўрининг ҳаётини тубдан ўзгартириб юборади. Эгаси Оқ Сўйлоққа мулойимлик билан оҳиста ва хотиржам гапирди. Бўри ўзига ва инстинктининг барча даҳшатли огоҳлантиришларига қарамай, эгаси бўлмиш инсон зотига ишона бошлади.

"The Blessed Wolf!" chorused the women. Judge Scott surveyed them triumphantly. "Out of your own mouths be it," he said. "Just as I contended right along. No mere dog could have done what he did. He's a wolf." "A Blessed Wolf," amended the Judge's wife. "Yes, Blessed Wolf," agreed the Judge. "And henceforth that shall be my name for him."

Кейинги парчада Оқ Сўйлоқнинг муҳити ўзгарган сари унинг хулқ-атвори ҳам ўзгаради. Роман давомида Оқ Сўйлоқ табиат ва жамият ўртасидаги зиддиятни ёритиб, ўзининг ёввойи инстинктларини ички дунёси билан уйғунлаштириш учун курашади. Оқ Сўйлоқнинг табиий жанг қилиш ва ов қилиш инстинктлари одамларнинг усулларига зид. Бирок у одамлар дунёсига мослашиб кетади, чунки Оқ Сўйлоқ табиатан мослашувчан, кўп саёхат қилгани боис мослашишнинг зарурлигини билиб олган. Унинг унитилмас ва кутилмаганда ўз эгасини ҳимоя қилган ҳолатдаги жасорати тасвирланган. Бехосдан ўк унга тегиб кетади ва эгаси уни кўкларга кўтариб, Буюк Бўри итлар қилолмаган ишни уддасидан чиқди. Бўрининг жасорати ва унинг ҳақиқий ҳимоячилик тимсоли Оқ Сўйлоқга мисолида ифодаланган. Бўри тимсолида яширинган инсон жасорати кўчма маънодаги метафора ҳисобланади.

Хулоса Бўри зоосемаси орқали енгилмас ва кучли жангчилик, оқкўнгил, раҳмдил,, кўриқчи ёки ҳимоячи, кудратли, жасур, кучли, енгилмас ва ваҳший жангчи каби хусусиятлари акс эттирган. Бўрининг ижобий хислатлари билан бирга унинг жангчи сифатидаги очкўзлик ва талон тарож қилиш каби салбий хусусиятлари ҳам ўз ифодасини топган. Шу билан бирга Бўри зоосемизми ўзига ишончи ва эътиқоди баланд инсон кийёфасини гавдалантира олган уни қийинчиликлар ва азоблардан кўркмайдиган кучли ирода соҳиби сифатида тасвирланади. Бўрининг жасорати ва унинг ҳақиқий ҳимоячилик тимсоли Оқ Сўйлоқга образида акс эттирилган. Ёзувчилар бўри тимсоли орқали инсон жасоратини кўчма маънодаги метафора сифатида тасвирлайдилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Лясота Ю. Л., Зоосемия английсково языка, ДВГ, Владивосток, 1969
2. Grząsko, Agnieszka.1 On Zoosemy, Foodsemy and Plantosemy: A Cognitive Approach To Selected Terms of Endearment
3. R.Kipling "Jungle book" Oxford University Press United Kingdom 2015 10 p
4. K. Woodwiss "The wolf and The dove" New York Avon books 2007 5 p
5. J. London Sea Wolf Project Gutenberg.U.S.1904 23 p
6. J. London "White Fang" URIS library New York 1987 73 p

**Toirova U.S.
BDU**

MUSHUK ZOOSEMIZMINING O'ZBEK ASARLARIDAGI BADIY QO'LLANILISH USULLARI

Kirish Zoosemizmlar - bu hayvonlarning nomlari shaxslarning ikkilamchi nomlari (metaforalar). Zoosemizmlar metaforik nominatsiyaning eng muntazam modellaridan birini ifodalaydi . Ilmiy sohalarda "zoosemizm" atamasining talqini turlicha. Solntseva fikriga ko'ra

zoosemizm insonni tavsiflovchi metaforalangan zoonimdir. Zoosemizmlarni rus metaforik nominatsiyasining maxsus hodisasi sifatida o'rganish 70-yillarga borib taqaladi. XX asr Bu masala M.I.ning asarlarida o'z aksini topgan. Keyinchalik, turli Evropa tillari: nemis ingliz va hokazo bilan ishlaydigan tadqiqotchilar uning rivojlanishiga hissa qo'shdilar .

L.A. Kipriyanova o'zining "zoosemizm" atamasini taklif qiladi - bu umumiy superjamoa bo'lib, unda unga kiritilgan leksemalarning majoziy ma'nosi ustuvorligi seziladi. N.V. Solntseva "zoonim"ni "umumiy lug'at birligi" deb hisoblaydi, u bir tomondan "zoosemizm" shaklini oladi. Olimning fikricha, zoonimning bu leksik-semantik variantlari – zoosemizm va zoomorfizm o'zining semantik tuzilishiga ko'ra birikadi va ayni paytda bir-biriga qarama-qarshidir.

Asosiy qism Mushuk obrazi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo uning qaysi ramzlarda kelishi hamda yozuvchi va shoirlarning mushuk zoosemasini turlicha talqin etilishini ko'rib chiqamiz. O'zbek xalqi azal-azaldan hayvonlarni ardoqlab kelgan. O'zbek asarlaridagi mushuklar zoosemasini ko'rib tahlil qilganimizda mushuklarning salbiy va ijobiy xususiyatlarini aks ettiruvchi misollarga guvoh bo'ldik. Bundan tashqari mushukning qanday paydo bo'lagani hammani qiziqтира ајаб emas.

— Buva, buvajon, — dedi u entikib, — mushuk nimadan paydo bo'lgan, bilasizmi?

— Bilaman, qizim, bilaman. Mushuk arslondan paydo bo'lgan.

— Unda nimaga arslonmas, mushuk bo'lib qolgan?

— E, buning tarixi juda uzun, qizim. Ilgari mushuk ham arslon bo'lgan ekan. Hammalari bitta o'rmonda inoq-ahil yasharkan. Kunlardan bir kuni o'rmonda arsloncha tug'ilib, unga «Mushuk» deb nom berishibdi. Mushuk ulg'aygan sayin o'rmonda buyumlar yo'qolaveribdi. Keyin, bilishsa, o'sha Mushuk degan arsloncha o'g'irlarkan. Mushukni insofga chaqirishmoqchi bo'lishganda, u shunaqangi lo'lilik qilibdiki, asti qo'yaverasan. Arslonlar qarashsaki, bu Mushuk insofga yurmaydigan. O'g'ri desa o'g'ri, qo'rqqoq desa qo'rqqoq, nomard desa nomard. Xullas, hech bir tuki arslonga o'xshamaydigan. Shundan keyin qari arslonlar kengashib: «Buning turqi bo'lakcha, ikki dunyoda chin arslon bo'lmaydi. Pushtimizni bulg'aydi», degan qarorga kelib: «Shu turishingda unib-o'sma», deb qarg'abdilar. Qarg'ish tegib, mushuk o'smay qolgach, uni o'rmondan haydab yuboribdilar. Shundan beri arslonlar ichida nomardlar, o'g'rilar paydo bo'lsa, «Mushuk bo'l», degan qarg'ishga uchrab, mushukka aylanib qolaverar ekan...

-To'lan, jinnivoy, Zirillamaga borganda ham piqillaverma .Xotining yarim mushuk bo'lib qopti deb tayoq bilan urib yurmasin.

Ushbu asliyatdan ko'rinib turibdiki, mushuk arslon avlodidan paydo bo'lib, arslonlarcha kasb-kor tanlamadi. Aksincha o'ziga ma'qul yo'lni tanlab, arslonlar oilsidan badarg'a qilinadi. Uni dastidan o'rmonda narsalar yo'qolib qolar, unga qo'rqqoq, nomard, o'g'ri degan tamg'alar uning qilmishidan paydo bo'lgan edi. U arslonlar yo'lidan yurmagan, ularga bo'ysunmagani uchun ular uni "Mushuk bo'l" deya qarg'ashadi va u mushukka aylanib qoladi. Yarim mushuk bo'lmoq esa o'g'ri bo'lmoq bilan barobardir. Bu o'z navbatida mushukning kasbiga kirib qoladi.

- Qarasam Qora ammamning mushugi! Juda yuvosh mushuk-da o'ziyam! Dadamga o'xshaydi! Dadamni mo'ylovidan tortsam indamaydi, mushukni dumidan tortsam ham jim turadi.

Yozuvchi Sho'xlik qilmaydigan, tinch yoki jim yuradigan beozor odamni tasvirlar ekan. Bunda albatta mushukning yuvoshligi birovlarga zarar yetkazmaydigan juda tinch odam timsoli gavdalanadi. Bu yerda mushuk zoosemasi insonning xarakter xususiyatini ifodalayapti. Quyida keltirilgan asliyat esa mushukning beozor ekanligini, hamda bu hayvon payg'ambar tomonidan ardoqlanib, e'zozlanganini ko'rishimiz mumkin.

-Mushukka ozor berma Muzaffar !Payg'ambar orqasini silagan.

Bundan tashqari mushuk obrazi o'z ichiga nafaqat xarakter xususiyatni balki xatti harakatga oid misollarni dalil sifatida keltirish asoslidir.

Tamba surildi .Eshikning bir tabaqasi ochildi-da, kimdir Olimjonni yoqasidan mushuk boladek changallab uloqtirib yubordi.b) -Olimjon mushukdek g'ujanak bo'lgan pishillab uxlar, boshidan do'ppisi tushib, peshonasi terlab ketgan, nariroqda pachoq chelak to'ntarilib yotardi .

Akbarali mushukdek sapchib, yo'lakka borib qoldi. Zambil ostida xanjarni qisimlab, go'yo sichqonni poylagan mushukdek hujumga hozirlanib yotar edi. Kelguchilarning biri Sodiq va ikkinchisi Mutal edi. Tumshug'ini yerga tirab yotgan mushukdek bo'lib, Otabek ularni kuzatar edi.

Insonni harakati va holatini mushuk bolasiga qiyoslab, unda hayvon bolasiga qilingan munosabat aks ettiriladi. Bunday harakatni mushukdagi yana bir holat harakat sifatida ifodash ham mumkin. Qo'rqqan mushuk holati esa albatta insonning holatiga qiyoslanib, mushukdek g'ujanak bo'lib yotganligi tasvirlanadi. Keyingi misolda mushukning taqillashi jimjitlikni buzuvchi vosita bo'lib, inson taqillashiga asoslangan. Akbaralining harakati go'yoki mushukdek sapchib, birdaniga sakrab borishi ham yuqorida ko'rsatilib o'tildi. Shu bilan birgalikda o'z dushmani bo'lmish sichqonni sinchkovlik bilan kuzatilishi kabi xususiyatlar ham alohida e'tirof etilgan. Keyingi misolda esa inson xarakter xususiyatlarini o'z ichiga oladigan mushuk obrazi orqali ifadalanadigan misollarni ko'rib chiqamiz:

Pishak –mushuk suyuq ayolday gap, kim qornini to'yg'issa bo'ldi, ketidan ketavaradi. Eshak egasini, pishak bekasini tanimaydi.

Xotin zoti borki bari shirin gap, erkalashni yoqtiradi. Ba'zi xotinlar mushuk tabiat, shirin so'z bilan terisini silasangiz xurrak tortadi.

Samandarov yomg'irda ivib botgan mushukdek shumshayib qolgan.

— Hah! Sanam rosa olasan-da, xotin! Namuncha mushugingni avaylab qolding? Asli xotinminam mushukning mijozi bir.

Mushuk misolida suyuq ayol va buzuq ayol obrazi gavdalanib, mushukni qanchalik silasangiz u shunchalik insonga bo'ysunishini, ba'zi ayollar ham shirin so'z gadosi sifatida yaxshi munosabat ila muomala qilinsa hech shak shubhasiz egasi izmidan chiqa olmaydi. Jonivordagi bunday xususiyatlarning aynan ayollarga o'tishi va ayollar misolida tasvirlanib berilishi kishini o'yantirib qo'yadi. Mushukning shumshayishi uning xafa bo'lishini anglatadi.

Бир йил муқаддам нима бўлди-ю, икки ўртадаги меҳр ришталари узилди. Ораларидан қора мушук ўтди.

Shu yo'sin Zaynab bilan uyatsizcha ko'p olishdiq, bu it-mushuklikdan biz zerikmasakda, kuyovingizning jonidan to'ydirayozdiq.

Yuqorida bayon etilgan misol shuni isbotlaydiki, kimdir biror kishi bilan janjallasha, ularning oralari buzilsa bu albatta keng tarqalgan fraeologiyalardan biri oralaridan qora mushuk o'tdi deya sha'ma qilinadi. Ya'ni insonlarning mehri o'rnida kunoraa janjal, kunora bahs-munozara bo'lsa ushbu ibora qo'llaniladi. It-mushuk bo'lmoq iborasi esa dushmanona munosabatda bo'lishi ifodalab beradi.

Xulosa Mushuk zoosemasi orqali insonning qo'rqqoq, nomard, o'g'ri, beozor kabi xususiyatlari bilan birgalikda, mushukning ayolga qiyoslanishi, uning suykalishi ba'zan suyuq va buzuq ayol obrazi bilan qiyoslanadi. Shu bilan birgalikda mushukka ozor bermaslik, uning payg'ambar tomonidan ardoqlanib, e'zozlanganini alohida ta'kidlangan. Shu bilan birgalikda mushukning xarakterlaridan tashqari uning mushuk holati ham aks etgan misollarda qo'rqqan mushuk holati albatta insonning holatiga qiyoslanib, mushukdek g'ujanak bo'lib yotganligi tasvirlanadi. Mushukning taqillashi jimjitlikni buzuvchi vosita bo'lib, inson taqillashiga asoslangan. Akbaralining harakati go'yoki mushukdek sapchib, sakrab borishi mushukka taqqoslandi. O'z dushmani bo'lmish sichqonni sinchkovlik bilan kuzatilishi, mushukning shumshayishi uning xafa bo'lishini anglatadi. Orasidan qora mushuk yoki it mushuk bo'ldi degan iboralar esa biror kishi bilan janjallasha, dushmanona munosabatda bo'lishi ifodalab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kiełtyka, R., & Kleparski, G. (2005). The Ups And Downs Of The Great Chain Of Being: The Case Of Canine Zoosemy In The History Of English. SKASE Journal of Theoretical Linguistics, 2, 22–41
2. T.Malik Devona qissa www.ziyo.uz.kutubxona
3. S.Ahmad "Ufq" G'.G'ulom Adabiyot va san'at nashriyoti 1976-yil 167-bet
4. O'.Hoshimov "Umr savdosi" "Sharq nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent" 1998
5. T.M. Otamdan qolgan dalalar - "Sharq nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent"

Хамроева Инобат Икромовна. БУХОРОНИНГ АСЛ ФАРЗАНДИ.....	230
Вершинина Мария Геннадьевна, Белова Лариса Александровна. МУЗЫКАЛЬНОЕ НАСЛЕДИЕ В СОЗНАНИИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ	232
Ashurova Dilrabo Isroil qizi. ISSUES OF MORAL UPLIFTMENT OF YOUNG PEOPLE IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF ABDUQADYR SHAKURI	235
Axmedova Mehrinigor Bahodirovna. INGLIZ MADANIYATIDA “SPIRITUALITY” (MA’NAVIYAT)NING O’RNI: IJTIMOIIY TAHLIL	237
Toirova U.S. Ingliz romanlarida bo’ri zoosemasining berilish usullari	239
Toirova U.S. Mushuk zoosemazimning o’zbek asarlaridagi badiiy qo’llanilish usullari.....	241
Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna, Er kayeva Dilnoza Bakhtiyorovna. LINGUOCULTUROLOGY AS A NEW PHILOLOGICAL DISCIPLINE	244
Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna, Er kayeva Dilnoza Bakhtiyorovna. MODERN PRACTICE OF FILM TRANSLATION	246
Shoira Shavkatovna Karimova. METHODOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN.....	249
Mavlyanova Nigina Erkinovna. BEXBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA O’SMIR OBRAZINING ILMSIZLIK MUAMMOLARI TASVIRI.....	250
Sharipov Ma’mur Mansurovich. CHARLES DIKKENS ASARLARIDA XIZMATKOR OBRAZINI YARATISHNING LINGVOPOETIK VOSITALARI	252
Sharipov Ma’mur Mansurovich. DAFNE DU MAURIERNING “REBEKKA” ASARIDAGI XIZMATKOR OBRAZINI TASVIRLANISHI.	253
Sobirova Zarnigor Rakhimovna. SOME OF THE PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE TRANSLATION OF UZBEK TOURIST TERMS INTO ENGLISH.....	255
Mavlyanova Nigina Erkinovna, Axmedova Mehrinigor Bahodirovna. XX ASRNING O’ZBEK DRAMATURGIYASIDA BOLALARNING AXLOQIIY MUAMMOLARI VA ULARNING JAMIYATDA BULGAN MADANIYATIGA TA’SIRI.....	258
Jumayev Rustam G’aniyevich. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI NAZARIY-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH	260
Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Tursunova Zarina Farkhodovna. THE FORMATION OF THE SEMANTIC FIELD "EMOTIONS"	262
Tursunova Zarina Farkhodovna. FALSAFADA "HISSIIYOT" TUSHUNCHASI.....	264
Sobirova Zarnigor Rakhimovna. THE FOUNDATION OF BARBARISM TERMS IN ENGLISH.....	266
Sattorova Shalola Bobir Qizi. MIRZO ABDULQODIR BEDIL DUNYOQRASHI SHAKLLANISHINING TARIXIIY VA FALSAFIY ILDIZLARI	267
Ashurova Ulg’o’zi Isroil qizi. KOREYSLARNING O’ZBEKISTON SSRDAGI DASTLABKI HAYOTI.....	272
Абдухолик Ташанов. Мафкуравий полигонлар ва маънавий инкирознинг айрим жихатлари.....	274

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 12 нусха. Ҳажми 280 бет. Формат А4. Буюртма рақами 258. 2023 йид.